“MING BIR KECHA“ ERTAGI MOTIVLARINING “AMERIKA FOJIASI”ROMANIDAGI BADIIY FUNKSIYASI VA REALIZM KONTEKSTIDAGI TALQINI

Kushatova Nargiza Rustamovna
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
E-mail: nargizakushatova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida kuzatiladigan sharqona ertak motivlarining badiiy funksiyasi va ularning realizm kontekstida qayta talqin etilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda boylikka intilish, ijtimoiy yuksalish va orzu motivlari sharqona ertak tafakkuriga xos arxetipik strukturalar bilan bog‘liq holda izohlanadi. Xususan, “Ming bir kecha” ertagi motivlari nazariy kontekst sifatida qo‘llanilib, ular madaniy-genetik manba sifatida talqin qilinadi. Natijada Drayzer realizmi ertakona illuziyalarni dekonstruksiya qilib, ularni fojeaviy mazmunga aylantirishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: realizm, xronotop, ertak motivlari, illuziya, orzu, arxetip, fojea, psixoanaliz.

XX asr Amerika adabiyotida realizm va naturalizm inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayonda Teodor Drayzer ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning “Amerika fojiasi” romani shaxsning ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi, orzu va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyat hamda fojiaviy yakun masalalarini chuqur badiiy tahlil etadi.

Mazkur tadqiqotda romanda kuzatiladigan boylikka intilish, ijtimoiy yuksalish va “baxtli hayot” orzusi kabi motivlar sharqona ertak tafakkuriga xos arxetipik strukturalar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Xususan, “Ming bir kecha”an’analariga xos motivlar nazariy kontekst sifatida xizmat qiladi.

1921-yilda bergan intervyusida Drayzer realizmning chegarasiga yetganini ta’kidlab, shunday deydi: “Realistik roman o‘z cho‘qqisiga yetdi”; ijtimoiy haqiqat va jinsiy ochiqlik uchun kurash esa “qat’iyatli yozuvchilar”ni yetishtirdi. Shu bilan birga, u Amerika adabiyotida hali yetishmayotgan narsa — bu tasavvur qudrati, deb hisoblaydi. Drayzer fikricha, zamonaviy shahar hayotida ham “jahannam, jannat va poklanish” mavjud bo‘lib, “Dante buni oddiy realizmdan yuqori darajada tasvirlagan bo‘lardi”.[3,p 277] Shunday qilib, u realizmning cheklangan imkoniyatlarini tan olib, zamonaviy roman uchun tasavvur va dramatik qudratni birlashtirishni muhim badiiy tamoyil sifatida ilgari suradi.

Teodor Drayzer o‘zining “Shafaq”(Dawn) asarida 1880-yillardagi Chicago haqidagi ilk tasavvurlarini tasvirlar ekan, Indiana poyezdidan endigina tushgan bola uchun bu xom, loyqa shahar “Ming bir kecha”dagi Alovuddinning

mo‘jizaviy manzarasidek” tuyulganini aytadi. U yana shunday qo‘shimcha qiladi: “Agar men dunyoga bitta ne’mat bera olsam, bu — o‘sha paytda dunyoni qanday his qilgan bo‘lsam, xuddi shunday his etish zavqini berish bo‘lardi”.[2,p 298-299] U Amerika hayotining achchiq haqiqatlarini tasvirlar ekan, bolalikdagi orzu va fantaziya ohangini yo‘qotmaydi; natijada uning asarlarida realistik tasvir bilan ichki romantik sezgi o‘zaro uyg‘unlashib, o‘quvchiga kuchli estetik va hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

Drayzerning estetik tizimida illyuziya tushunchasi muhim o‘rin tutadi, deb ta’kidlaydi E.A. Morozkina.[7,b160] Yozuvchi fikricha, insonni dunyoning shafqatsizligidan himoya qiluvchi illyuziyalar hayotga qiziqishni saqlashga yordam beradi, ammo ularning yo‘qolishi shaxsiyatning parchalanishi va halok bo‘lishiga olib keladi.

Bu fikrni Uilyam L. Fillips ham ta’kidlab “Amerika fojiasi” romanining asosiy “kalit so‘zi” deterministik “xemizm” emas, balki “orzular” ekanini ta’kidlaydi. Uningcha, roman matnida aynan shu tushunchaga bog‘liq holda ertak va afsonalarga xos unsurlar — “ko‘rinishlar”, “ruhlar”, “sehr”, “fantaziyalar”, “maftun etilgan”, “sehrlangan”, “sirli”, “mavhum” kabi obrazlar tizimi shakllanadi. [6,p 580-583]Shunday qilib, Drayzer realizmi faqat ijtimoiy haqiqatni ochib berish bilangina cheklanmay, balki inson ongidagi illyuziya va orzular olamini ham chuqur badiiy qatlam sifatida namoyon etadi; natijada roman fojeasi aynan shu ikki olam — haqiqat va xayol to‘qnashuvida yuzaga keladi.

Drayzer, ehtimol, Alovuddin ertagi bilan Klayd Griffits taqdiri o‘rtasidagi o‘xshashliklardan ilhomlangan. U Jiliet voqeasini qanday qayta ishlagan bo‘lsa, Alovuddin haqidagi ertakdan ham “Amerika fojiasi”ning qisqacha mazmunini ko‘rish mumkin.[3,p 275-276]

Alovuddin aslida kambag‘al, tartibsiz va zavq ortidan quvuvchi bola bo‘lib, tasodifan boy “amaki”ga duch keladi va shu orqali boylik hamda hashamat olamiga kiradi. U javohirlar g‘oridan boylik yig‘adi — bu jihat Klaydning moddiy narsalarga berilishiga o‘xshab ketadi. Biroq bu “amaki” aslida yovuz kuch timsoli bo‘lib, Alovuddin uni aldab vaqtincha boylik va mavqega erishadi.[3,p 276] Shu tarzda ertakdagi keskin burilishlar Klayd taqdiridagi ijtimoiy ko‘tarilish va fojeaviy qulash motivlari bilan uyg‘unlashadi.

Asarda “Ming bir kecha” motivlari oddiy bezak yoki tasodifiy intertekst emas, balki asarning ichki falsafiy va psixologik tuzilmasini belgilovchi asosiy qatlamdir. Drayzer arab ertaklaridagi sehr, boylik va mo‘jiza obrazlarini Amerika jamiyatidagi “muvaffaqiyat illyuziyasi” bilan uyg‘unlashtirib, ularni fojiaviy realizmga aylantiradi.

Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida “Ming bir kecha” ertagidan foydalanishi ikki tomonlama ahamiyatga ega: bir tomondan, bu Klaydning shahar hayotini idrok etishida aks etadigan noaniq “sharqona” tasavvurlarni

ifodalaydi; ikkinchi tomondan esa, u Freydning ong osti haqidagi nazariyasini eslatuvchi jiddiy va boshqaruvchi ramziy ertak vazifasini bajaradi. Aynan shu jihat romanga 1920-yillar ruhini beradi — bu davrda Drayzer nafaqat psixoanalitik yondashuvni o‘rganayotgan, balki “Ming bir kecha” ning to‘liq adabiy talqinini ham o‘zining jinoyat haqidagi asariga aloqadorligi nuqtai nazaridan tahlil qilayotgan edi.

Roman ilk jumlasidan boshlab “Haqiqiy bo‘lmagan shahar” haqidagi ertak sifatida rivojlanadi.

Endi “Baxtiqaro Kerri”dagi kabi aniq sana Drayzer uchun muhim emas.

Dusk—of a summer night. And the tall walls of the commercial heart of an American city of perhaps 400 000 inhabitants —such walls as in time may linger as a mere fable.[1,p1] — Ma’nosi: Yoz oqshomining shom pallasi.
Va taxminan 400 ming aholiga ega bo‘lgan Amerika shahrining savdo markazidagi baland devorlar —vaqt o‘tib, balki faqat ertak sifatida qolib ketishi mumkin bo‘lgan devorlar.

Ertakdagi sehrli chiroq qanday qilib kambag‘al bolani birdan boylik olamiga olib kirsa, mehmonxona ham Klaydni diniy qashshoqlikdan hashamat makoniga ko‘chiradi. Biroq Drayzer bu “sehr”ning ijtimoiy asosini ochib beradi: bu yerda mo‘jiza – kapitalistik tizimning tasodifiy imkoniyati xolos.Yozuvchi mehmonxona makonini quyidagicha tasvirlaydi:

It seemed fantastic, Aladdinish, really. [1,p 55]— Ma’nosi: U rostdan ham xuddi Aladdin olamiga tushib qolgandek, nihoyatda sehrli edi.

Romanda o‘lim xronotopi, Klayd “Tayms-Yunion” gazetasida Massachusetsdagi bir qizning Pass ko‘liga cho‘kib vafot etgani haqidagi maqolani o‘qishi bilan boshlanadi. Pass ko‘lidagi bu voqea uning ongida qotillik g‘oyasini uyg‘otadi. Drayzer Klaydning ruhiy inqirozi, qotillik rejasini rivojlantirishi, Big Bittern kolidagi halokat va Roberta Oldenning o‘limini batafsil tasvirlaydi. Ushbu sahnalar, jami oltmish betni tashkil etgan dahshatli voqealar, romanning an’anaviy realizm uslubidan chekinishini ko‘rsatadi, deb ta’kidlaydi Ellen Moers.

“Orzular tili, murakkab afsona yaratish, Klaydning jannat olami fantasmagoriyasi va Klaydning o‘zini asta-sekin yo‘qotishi bizni Drayzerning qotillik sahnalarini “Ming bir kecha” uslubida tasvirlashiga tayyorlaydi”.[3,p 280]

Ertak motivlari ayniqsa romanning fojiaviy kulminatsiyasida kuchayadi.Klayd ongida jinoyat g‘oyasi paydo bo‘lishi jarayoni go‘yo sehrli ertakdagi jin yoki ruh paydo bo‘lishi bilan qiyoslanadi. Asarda bu ichki ovoz ramziy tarzda ifodalanib, qahramonni halokat yo‘liga yetaklaydi:

…a region otherwhere than in life or death and peopled by creatures otherwise than himself . there had now suddenly appeared, as the genie at the accidental rubbing of Aladdin's lamp —as the efrit emerging as smoke from the mystic jar in the net of the fisherman…. [1,p 426,427]...hayot yoki o‘limdan

boshqa bir hudud, o‘zidan boshqa mavjudotlar yashaydigan bir makon paydo bo‘ldi… go‘yo Alovuddinning chirogini tasodifan ishqalash bilan paydo bo‘lgan jin, yoki baliqchi toridagi sehrli idishdan tutun bolib chiqqan Efrit kabi...

Asarda bu ichki ovoz ramziy tarzda ifodalanib, qahramonni halokat yo‘liga yetaklaydi:

For now the genie of his darkest and weakest side was speak ing. Behold! I bring you a way. It is the way of the lake.[1,p 427]— Ma’nosi:Endi esa uning ichidagi yovuz va eng zaif jin gapirayotgandi…Mana! Men senga yo‘l ko‘rsataman. Bu ko‘l yo‘li.

U o‘zini go‘yo sehrli chiroq egasidek tasavvur qilib, boshqalarni o‘z irodasiga bo‘ysundirishni xohlaydi; uning istaklari ko‘pincha jazolash va hukmronlik qilish bilan bog‘liq. Drayzer buni bevosita sadistik shaklda bermasa-da, “Ming bir kecha”dagi jin,Efrit obraziga ishora qilib, qahramonning yashirin yovuz mayllarini badiiy vosita orqali ifodalaydi.

Aynan shu g‘oya Drayzer uchun yechim bo‘lib xizmat qiladi: u qadimiy rivoyatlardagi yovuz ruh obrazini o‘z badiiy olamiga “ko‘chirib”, qotil ongini tadqiq etishga kirishadi.[3,p 270]

Bu holatni Zigmund Freyd yanada aniqroq tushuntiradi: uning fikricha, jinlar va yovuz ruhlar haqidagi tasavvurlar aslida inson ongida bostirilgan, rad etilgan istaklarning timsolidir; zamonaviy inson esa bu istaklarni tashqi obrazlarga ko‘chirishdan tobora voz kechgan..[4, p 436-437]

Sondra obrazi esa ertakdagi malika arxetipini ifodalaydi. U Klayd uchun nafaqat sevgi obyekti, balki ijtimoiy yuksalish va ideal hayot timsoli hisoblanadi. Shu tariqa ertak strukturasining barcha asosiy elementlari (qahramon, sehr, malika, sinov) romanda mavjud bo‘lsa-da, ular fojiaviy yakun bilan nihoyasiga yetadi.

And with Sondra as the central or crowning jewel to so much sudden and such Aladdin-like splendor.[1,p 427]— Ma’nosi:Va Sondra, asosiy, tojga ornatilgan gavhar kabi, favqulodda va Alovuddinning mo‘jizaviy olamidagi muhtasham nur kabi edi.

Sondraning ertakdagidek sehrlovchi malika sifatidagi obrazi, sud zalida advokat Jefsonning nutqi orqali ham etirof etiladi.

A case of the Arabian Nights,of the enscorcelled and the enscorsellor. [1, p 626].— Ma’nosi “Ming bir kecha”dagi kabi , sehrlanganlar va sehrlovchilar haqidagi bir voqea..

Shu bilan birga, romanning yakuniy sahnasida Klaydga qamoqxonada “Ming bir kecha” kitobining berilishi chuqur ramziy ma’noga ega. Bu holat qahramonning butun hayoti davomida ortidan quvgan ertakona illuziyalar endi faqat matn darajasida mavjud ekanini anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Amerika fojiasi” romanida kuzatiladigan boylik va ijtimoiy yuksalish motivlari sharqona ertak tafakkuriga

xos arxetipik strukturalarni eslatadi. Biroq yozuvchi ushbu motivlarni realizm asosida qayta talqin qilib, ularning illuzor mohiyatini ochib beradi. Natijada ertakona idealizm real hayot sharoitida fojiaviy mazmun kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dreiser T. An American Tragedy. – Boni & Liveright, 1925. – Hawthorne Classics, 2022.747p
2. Dreiser T. Dawn. A history of myself. – New York: Random House, 1931. – P. 298-299.
3. Ellen Moers. Two Dreisers. – New York,Viking press,1969. – 394p.
4. Freud, Sigmund. A Neurosis of Demoniacal Possession in the. Seventeenth Century. Translated by Edward Glover. In Collected Papers, Vol. IV, 436–37. 1923.
5. Freud, S. Totem and Taboo: Resemblances Between the Psychic Lives of Savages and Neurotics. – New York: Moffat, Yard and Company, 1918. – 277 p.
6. William L Phillips, “The Imagery of Dreiser's Novels,”. PMLA, December 1963. – 580-83.
7. Морозкина Е.А. Творчество Теодора Драйзера и литературное развитие США на рубеже XIX-XX веков. – Уфа: Издательство Башкирского университета, 1994. – 160 с.